

Oliy va O'rta ta'lim vazirligi

Toshkent Moliya instituti

Moliya-iqtisod fakulteti

Referat

Mavzu: Tabiatni muxofaza qilish-
tabiatdan foydalanishning tarkibiy qismi

Toshkent-2014

МаВЗу: Табиатни мухофаза қилиш- табиатдан фойдаланишнинг таркибий қисми

REJA:

1. Ekologiya va tabiatdan foydalanishning qisqacha tarixi
2. Tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning asoslari
3. Tabiatdan foydalanish jarayoni natijasida ko'riladigan iqtisodiy va ijtimoiy zarar. Ularni oldini olish tadbirlari.

Ekologiya va tabiatdan foydalanishning qisqacha tarixi

Ekologiyaga oid dastlabki tushuncha va ma'lumotlar eramizdan oldingi VI-VII asrlarga xos bo'lib, Mirs, Arab, Xitoy, Xindiston va Yunon qo'lyozmalarida uchraydi. Qo'lyozmalarda qadimda tabiat, tabiiy muhit, insonlarni turli hududlardagi hayot tarzi, tabiiy sharoitga moslashish kabi ma'lumotlar qayd etilgan.

O'rta asrda Sharqda Buqrot nomi bilan mashhur bo'lgan Gippokrat (eramizgacha 460 - 377 yillar) meditsina va tabiatga oid «Muskullar», «Parhez», «Ovqat», «Qadimgi meditsina», «Inson tabiati», «Havo-suv» va «Joy» haqida traktatlarida muhit omillarini inson salomatligiga ta'sirini ko'rsatib berdi. Arastu (Aristotel) hayvonlarni oziqlanishi va ularni yashash sharoitiga qarab klassifikatsiya qilib berdi. Galen (130-200 yil) «Tabiiy kuch», «Elementlar» traktatlarida to'rt elementni (stixiya) - suv, havo, olov va yerni tabiatni tabiiy asosi deb hisoblaydi. Teofrast o'z asarlarida o'simliklarning turli shakllari va ularning o'sish xususiyatlarini mazkur joyning, hududning iqlim xususiyatlariga, tuproq qoplamiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Ekologiya, tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi bilimlarni rivojlanishiga Sharqning buyuk mutafakkirlari ham katta hissa qo'shganlar. Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783-850 yil) «Kitob surat al arz» asarida yer yuzasini 7 iqlim mintaqalariga bo'lib daryolar, dengizlar, orollar, tog'lar va shaharlarni joylashichiga qarab iqlimiy mintaqalarga taqsimlab chiqadi. Insonga atrof-muhitning ta'siri va uning natijasida inson tanasidagi o'zgarishlar, mahalliy o'simlik, hayvonot dunyosi va minerallardan foydalangan holda turli dori-darmonlarni tayyorlash usullari hamda ularni kimyoviy tarkiblari to'g'risidagi ma'lumotlar Abu Abdulloh al Xorazmiy (997 yil vafot etgan) asarida uchraydi. Sharq Arastusi nomini olgan Abu Nasr al Farobiy (873-950 yil) asarlarida insonni paydo bo'lishida bir tamondan tabiatni umumiy takomillashuvi bo'lsa, ikkinchi tamondan tabiat va jamiyatda ro'y beradigan tarixiy taraqqiyotning harakat shaklini

(evolyutsiya) ko'rsatadi. Farobiy insonda turli kasalliklarning kelib chiqishi sabablarini - ovqatlanishga, ovqatlanishni - o'simlikka, o'simlikni esa yerga bog'liqligini va tashqi muhit holatini, inson organizmining sezishini 5 turga bo'ladi.

Turkiston, Xuroson va Xindiston tabiati, uning unsurlarini o'rgangan alloma Abu Rayhon al Beruniy (978-1048 yil) tabiatdan foydalanish (mineral va tog' jinslaridan, yer osti suvlaridan) sohasida juda qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Beruniy asarlarida geokologiyaga oid juda ko'p ma'lumotlar uchraydi. Masalan: Jayhun (Amudaryo) oqimining vaqti-vaqti bilan o'zgarishi, Arabiston cho'llarining qiyofasi, O'rta Osiyo tekisliklari, Xindiston yarim oroli tabiatining o'ziga xosligi va undagi tabiiy jarayonlar, o'zgarishlar, organik qoldiqlarning toshga aylanishi, dengiz hayvonlarining alomatlari, ularni muhitga moslashishi, quruqlik va dengizda uzoq muddat davom etgan miqdor va sifat jarayonlari natijasida yuz bergan o'zgarishlar va bosh. O'simlik va hayvonot dunyosi, inson ekologiyasiga oid, abiotik va biotik omillarni turli organizmlarga ta'sirining oqibatlari hamda ularning kuchini muhitga bog'liqligi to'g'risidagi qimmatli ilmiy nazariy va amaliy ma'lumotlar Abu Ali ibn Sino (9980-1037 yil) asarlarida yoritilgan. Tabiatga moslashish va tabiatni muhofaza qilish to'g'risida, Turkiston, Afg'oniston va Xindiston cho'llari, tog'lari tabiatiga oid ma'lumotlar qoldirgan yana bir vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur «Boburnoma» asarida havo suv kabi tabiatni boshqa unsurlariga ta'rif berib, Farg'ona vodiysi, Qobul, Samarqand, Dehli, Agra shaharlari, Jamna daryo bo'ylari, Kashmir hududlari tabiatining o'ziga xosligi, sofligi, go'zalligi, inson yashashi uchun qulayligi, hududlarning noz-nematlari to'g'risida muhim ma'lumotlar keltiradi.

O'simlik va hayvonlar, inson hayotining atrof-muhit bilan bog'liqligi Karl Linney, J. Byuffon, J. Lamark, M. Lomonosov, A. Gumbol'dt, K. Rul'e, Ch. Darvin, E. Gekkel'ning asarlarida o'z aksini topgan.

XX asrning 20-30 yillarida O'rta Osiyo Davlat Universitetining

professorlari D.N. Kashkarov va E.P. Korovinlar ekologiya-geografiya maktabini tashkil etishdi. Ularning O'rta Osiyo tog' va cho'llaridagi ekologiyaga oid tadqiqotlari («Muhit va hamjamo», «Hayvonlar ekologiyasining asoslari») hozirgi kungacha o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning asoslari

Ekologiya, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ekologiya o'ziga xos fan hisoblanib, biologik fanlar turkumiga, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish esa amaliyotga kiradi.

Ekologiya fan sifatida organizmlarning hayot jarayonini tadqiq etadi. Ekologiya tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib, ko'p qirrali mustaqil fanga aylandi. Tabiatdan oqilona foydalanish va tabiatni, atrof-muhitni muhofaza qilishdagi tadbirlarda ekologiya fan sifatida nazariy asos bo'lib hisoblanadi.

«Ekologiya» atamasini birinchi bo'lib nemis zoologi Ernst Gekkel' «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» (1866 yil), «Hayotning tabiiy tarixi» (1868 yil) asarlarida qo'lladi. Ekologiya so'zi yunoncha "oikos" - uy, yashash joyi, makon ma'nosini bildiradi. Hozirgi kunda atamaning mazmuni fanning mohiyatini to'laqonli ifodalamaydi. E.Gekkel' ta'rifi bo'yicha Ekologiya - hayvonlarning organik va anorganik muhit bilan o'zaro aloqalarini o'rganadi. Davrlar o'tishi bilan Ekologiyaning mazmuni asta sekin takomillashib, unga aniqlik va oydinlik kiritiladi.

Hozirgi kunda ekologiyaning turli ta'riflari mavjud:

- Organizmlarni o'zaro va atrof-muhit bilan aloqasini o'rganadigan biologiya fanining bir qismi;

- Turli bosqichlarga xos ekotizimlar faoliyatining umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan fan sohasi;

- Tirik mavjudotlarning (inson ham) turli bosqichlarda yashash muhitini o'rganadigan fanlar majmuasi;

- Insonni ekologik tizim bilan aloqasi va unga ta'sir doirasi meyorlarini tadqiqot qiladi va boshqalar.

Shunday qilib, Ekologiyaga oid yuqoridagi ta'riflarni mujassamlashtirib, quyidagi ta'rifni berish mumkin: Ekologiya - organizmlarning (har qanday ko'rinishda, barcha darajada uyg'unlashgan) hayot faoliyati qonuniyatlarini, ular hayot kechiradigan tabiiy muhitga inson omilining ta'sirini hisobga olgan holda o'rganadigan fanidir.

Ekologik muammo - insonni tabiatga ta'siri natijasida vujudga kelgan turli hodisalar yoki tabiiy hodisa, jarayonlar sababli tabiatni insonga va uning xo'jaligiga ta'siri natijasida vujudga kelgan muammodir (tabiiy ofat, iqlimni o'zgarishi, hayvonlarni tartibsiz ko'chishi va bosh.)

Inson bilan tabiat o'tasidagi munosabatlar qadimdan dolzarb muammo bo'lib kelgan. Ular o'rtasidagi o'zaro murakkab ziddiyatlar keyingi vaqtda ya'ni fan-texnika taraqqiyoti, aholi sonining ortib borishi, jamiyatning tabiatga ta'sirining kuchayishi ekologik vaziyatni murakkablashtirmoqda. Natijada tabiiy landshaftlarning xususiyatlarini tubdan o'zgarishi, antropogen landshaftlarning vujudga kelishiga olib keldi. Tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirish oqibatida yangi xil tabiiy hodisa va jarayonlar vujudga keldi, bu o'zgarishning insonga bo'lgan ta'siri ham shuncha ko'p bo'ldi. Masalan: Orol dengizi, Balhash ko'li, Issqko'l va Kaspiy dengizi muammolari. Orol dengizi atrofidagi ekologik muammolar. Cho'llarni adirlashib (quruqlashib) borishi, O'zbekiston cho'llarida o'simlik va hayvon turlarini kamayib borishi yoki Xindiston, Pokiston va Xindi-Xitoy yarim orollaridagi suv toshqinlari, AQShning g'arbiy shtatlaridagi va Indoneziya, Yangi Zelandiyadagi yong'inlar, oqibatida ekologik muammolar vujudga keldi, ekologik vaziyat o'zgardi va ekologik muvozanat buzildi.

Ekologik muvozanat - inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoit muvozanati. Ekologik muvozanat o'n minglab yillar davomida

tarkib topgan va tabiiy holda juda sekin o'zgarib bordi. Lekin, insonning tabiatga salbiy ta'siri natijasida ekologik muvozanat ko'pincha yomon tamonga o'zgaryapti.

Ekologik muammolar o'zining genezisi va egallagan masshtabiga qarab: sayyoraviy, makro-, mezo-, mikro- larga bo'linishi mumkin. Masalan: Yer sayyorasi shimoliy qismining quruqlashib borishi yoki Janubiy yarim sharda namlikni ortib borishi - bu ekologik muammo - sayyoraviy ekologik muammodir, yoki orol dengizining qurib borishi, orolbo'yi atroflarida ekologik tanglik - bular - mezoekologik muammo. Shaharda, ko'shada, mahalla yoki xonadanda, xonada bo'ladigan ekologik noqulayliklar - mikroekologik muammodir.

Tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabati qadimdan shakllanib, hozirgi kunda takomillashib zamon muammosiga aylandi. Tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri murakkablashib, ziddiyatli bo'lib qoldi, tabiiy landshaftlarning xususiyatlari o'zgardi, ko'plab yangi antropogen landshaftlar vujudga keldi.

Insoniyatning hozirgi kundagi shiddatli xo'jalik faoliyati oqibatida tabiat, atrof-muhit o'zgarib bormoqda. Ma'lumki, tabiat qancha o'zlashtirilsa va o'zgartirilsa unda shuncha xilma-xil tabiiy, sun'iy jarayon va hodisalar vujudga keladi, natijada insoniyat turlicha aziyat chekishi mumkin.

Vujudga kelgan global ekologik muammolar insoniyatning Yer yuzidagi hayotni havf ostiga qoldirish mumkin. Bunga eng asosiy sabab yerda aholi sonining tez o'sishi va ishlab chiqarish masshtabining kundan-kunga ortib borishidadir. Qishloq xo'jaligi, infrastrukturaning rivojlanishi va yangi-yangi shaharlarning paydo bo'lishi ham salbiy ekologik oqibatlarni vujudga keltirmoqda.

Xo'jaliklarda texnologik jarayonlarni mukammal bo'lmaganligi sababli ishlab chiqarish mao'sadida olinayotgan tabiat boyliklarining faqatgina 1,5-2% oxirigi mahsulot sifatida foydalaniladi, qolgan qismi esa ishlab chiqarish va maishiy chiqindilarga qo'sxiladi.

Shunday qilib, insonlar jamiyati tabiatga katta zarar keltirmoqda. Insonni tabiatdan foydalanish jarayoni natijasidaga salbiy oqibatlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- tabiiy boyliklarni kamayishi, ba'zilarini tamom bo'lishi va yer yuzasidan batamom yo'qolishi;

- tabiiy landshaftlarni buzilishi, ba'zi tabiiy landshaft turlarining yo'qolishi;

- inson salomatligining o'g'irlashuvi va bosh..

«Tabiatdan foydalanish» atamasini fanga birinchi marotaba 1958 yili Yu.N. Kurajkovskiy kiritdi. Tabiatdan foydalanish sohasida ilmiy ta'limot, g'oyalarni tadqiq etishda V.A. Anuchin, I.P. Gerasimov, N.F. Reymers, V.S. Preobrajenskiy va boshqalarning hizmati katta. Hozirgi vaqtda tabiatdan foydalanish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tabiiy resurslarni ajratib olish va qayta ishlash;

- yashash muhiti sharoitlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish;

- Biosfera tabiiy tizimlaridagi ekologik muvozanatni saqlab turish, qayta tiklash va ularni oqilona o'zgartirish.

Insonning xo'jalik faoliyati ko'p qirrali bo'lib, tabiatdan foydalanish jarayoni ham xilma-xildir, ularni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: resursli, tarmoqli, hududiy. Tabiatdan foydalanishning resursli va hududiy turlarida resurslardan foydalanish jarayoni, tabiiy muhitning o'zgarishiga oid muammolar o'rganiladi. Uning asosiy vazifasi - tabiat resurslaridan foydalanishning eng qulay yo'lini maromiga yetkazishdir. Tarmoqli tur guruhi turli birikmalarga bo'linadi: alternativ, raqobatli, holis (neytral) va bosh.. Alternativ tabiatdan foydalanish boshqasini istisno qiladi. Masalan: foydali qazilmani ochiq usulda qazib olishda karyer vujudga keladi, oqibatda unumdor tuproq qatlami barbod etiladi. Raqobatli esa resurslardan foydalanish ko'payishi natijasida boshqa resurs turi kamayishi yoki ko'payishi mumkin. Masalan: o'rmonda daraxtlarni yoppasiga kesish, o'rmon tabiat zonasida rekreatsiya imkoniyatini cheklab qo'yadi. Holis

birikmada tabiatdan foydalanish bir-biriga halaqit bermaydi. Masalan: namlikni saqlash uchun tashkil etilgan yasxil o'rmonlardan ovchilikda ham foydalanish mumkin.

Tabiiy resurslardan foydalanish oqibatida tabiat bir butun holda yoki uning unsurlarida keskin salbiy o'zgarish sezilmasa unda tabiatdan to'g'ri foydalanilgan bo'ladi.

Tabiiy resurslarni, tirik mavjudotlarni muhofaza qilish va atrof-muhitni tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish - tabiatdan oqilona, to'g'ri (ratsional) foydalanishning maqsadidir.

Tabiatdan foydalanishda tabiatni asosiy qonun va qonuniyatlarini, jamiyat va tabiat munosabatlarini puxta bilishimiz kerak. Tabiatdan foydalanishning eng muhim qonunlaridan biri muvozanatni ichki dinamikasi qonunidir. Qonun bo'yicha tabiiy muhit unsurlarining biriga yoki bir qanchasiga ta'sir etilsa tabiatda zanjirsimon reaksiya yuz beradi, natijada yangi tabiat tizimlari vujudga keladi.

Tabiat tizimlarining mahsuldorligidan foydalanishda eng qulay, eng muvofiq yo'lni topish tabiatdan foydalanishda eng muhim masalalardan biridir. Masalan: dehqonchilikda ko'p paykalli almashlab ekish, tabiat tizimidagi yerdan foydalanishda eng qulay hisoblanadi.

Tabiatdan foydalanish xilma-xillik, insondan oqilona tadbirkorlikni talab qiladi. Insoniyat tarixidan ma'lumki hududlarda tabiiy sharoit qanchalik rang-barang bo'lsa, o'sha yerda insoniyat rivojiga sharoit bo'lgan. Shuning uchun ham madaniyat markazlari chegara hududlarida vujudga kelgan (tabiat zonalari, quruqlik va dengiz, toq va tekislik).

Inson har doim bir qolipda, bir o'lshovda, bir xilda yashay olmaydi. Geografik xilma-xillik inson hayoti uchun odat bo'lib qolgan. Shaharlarda aholi zich yashaydigan maskanlarda xilma-xil landshaft ko'rinishlari bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish o'zaro chambarchas bog'langan jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham tabiatdan

foydalanishning asosiy yonalishi - tiklanmaydigan tabiat resurslarini, jonli tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish hisoblanadi.

Tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish va tabiatni muhofaza qilish muammolari serqirra bo'lib, bir qator yonalishlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish davlat ahamiyatiga molik muhim vazifaga, umumhalq ichiga aylandi.

Tabiatni muhofaza qilish - tabiatni insoniyat manfaatlarini ko'zlab saqlashga va ongli ravishda o'zgartirishga, uning mahsuldorligini saqlab qolishga, tabiat boyliklaridan tabiat qonuniyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri foydalanishga qaratilgan barcha tadbirlar tizimidir.

Tabiatni muhofaza qilish asosan ikki yonalishda amalga oshiriladi:

- alohida ajratilgan hududlarda tabiat majmualari (komplekslari) ni tabiiy holati o'zgartirilmay saqlanadi va ko'paytiriladi;
- tabiatga ta'sir etib, undan unumliroq foydalanish, uni yaxshilash, unumliroq qilish uchun o'zgartiriladi va madaniy landshaft xosil qilinadi.

Tabiatni muhofaza qilish muammosi kompleks muammo bo'lib, murakkab ilmiy va amaliy vazifalarni hal etadi. Bu kompleks muammo mazmuni tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlar tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Tabiatni muhofaza qilishning asosiy ilmiy tadqiqot predmeti tabiiy muhit hisoblanadi.

Tabiiy muhit - insonni va boshqa tirik organizmlarni o'rab olgan, ularga ta'sir ko'rsatuvchi biotik, abiotik va ijtimoiy muhitlar majmuidir. Tabiiy muhit tabiiy holda yoki insonni xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgargan bo'lishi mumkin. Ma'lumki, tabiatning barcha qismlari, tabiiy jarayon va hodisalari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'lanib, muayyan muvozanatda turadi va bir butunlikni xosil etadi, ya'ni tabiatda barcha unsurlar, hodisalar o'zaro bog'lanib ketgan va bir butun tabiiy muhitni vujudga keltirgan.

Shunday qilib, tabiatni muhofaza qilishning asosiy vazifalariga tabiiy sharoit va tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanish, ishlab chiqarishda chiqindisiz tehnologiyalarni joriy qilish, tabiatni turli tabiiy va sun'iy

ifloslanishlardan saqlash, tabiatda yuz berishni mumkin bo'lgan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish, ya'ni bashorat qilish va salbiy o'zgarishlarni oldini olishdan iboratdir.

Tabiatdan foydalanish jarayoni natijasida ko'riladigan io'tisodiy va ijtimoiy zarar. Ularni oldini olish tadbirlari.

Tabiatning inson faoliyati ta'sirida o'zgarishi har doim ham ijobiy natijalarga olib kelavermaydi. Ma'lumki, tabiiy muhitning o'zgarishi asosan biror, chunonchi, o'simlik, tuproq, hayvonot dunyosi, qazilma boylik va boshqalardan meyoridan oshirib foydalanish natijasida yuz beradi. Bu hol tabiat orasidagi avvalgi turg'un ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Tabiiy komponentlar orasidagi o'zaro bog'liqlikning buzilishi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, yaylov chorvachiligining hudud o'simlik qoplamiga ta'siri, daraxt va butalarning turli maqsadlarda tartibsiz kesib olinishi hudud tabiiy sharoitida jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. O'simlik landshaftlarining mahsuldorligi va boyligi o'simlik olamining xilma-xilligi, zichligi, o't, buta va daraxtlarning o'zaro teng nisbatda almashib kelishiga bog'liq. Tabiiy muhitda aniq bir o'zgarishning yuz berishi yaylovlar, tuproq mahsuldorligining pasayishiga, suvning ifloslanishiga, ma'lum turga mansub hayvonlarning ushbu joylarni tark etishiga, ular o'rnida boshqa turlarning keng tarqalishiga, inson salomatligining yomonlashuviga, rel'ef o'zgarishlariga, oqibatda turli tabiiy ofatlarning tez-tez qaytarilib turishiga sabab bo'ladi. Tabiat o'zgarishlarining ijtimoiy jihati shundaki, tog' yonbag'rlarida sel, qor ko'chkisi, surilma, tog' qulashining qisqa muddatlarda qaytarilib turishi aholi tinchligini buzadi, ularni boshqa joylarga ko'chirish, qo'shimcha uy-joy qurilishi muammosini keltirib chiqaradi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, tabiatda barcha narsa, shu jumladan tabiiy boyliklar, resurslar hisobsiz emas. Shunday ekan, ulardan ehtiyojga qarab,

oqilona foydalanish ayniqsa bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani imkoniyat darajasida bajarishga harakat qilsak, atrof-muhitda ijobiy o'zgarishlar bo'lishga, ya'ni resurslarning qayta tiklanishiga, tabiiy mahsuldorlikning oshishi, suv va havoni tozalanishi, yer sifatining ortichiga erishamiz. Bu o'z navbatida tabiiy muhit potensial mahsuldorligining yuqori bo'lishiga imkon beradi.

O'zbekistonda tabiiy muhit tuproq, daryolar suvining ifloslanishi atmosfera havosining sanoat korxonalari va avtotransport chiqindilari ta'sirida bug'alanishi, vohalarda tuproqning sho'rlanishiga, zaharli kimyoviy ashyolar va mineral o'g'itlar bilan boyishi, eroziyaga berilishi, yaylovlarning shamol va eroziya ta'sirida degradatsiyaga uchrashi natijasida aziyat chekadi. Sanoat korxonalari, fermalar, maishiy xo'jalik korxonalarining oqovalari, kollektor - zovurlarning zahkash suvlari oqar suvlarni ifloslab kelmoqda, sho'rlikni oshirmoqda. XX asrning 50-60 yillariga qadar O'zbekistonda barcha daryo suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanilar edi. Endilikda daryo suvlari nafaqat ichimlik, balki sug'orish uchun ham havfli bo'lib bormoqda, chunki sho'r suv tuproqning sho'rlanishiga sabab bo'lmoqda, suvdagi pestitsidlar sug'orish jarayonida meva-poliz ekinlari, uzum va boshqalarning tarkibiga kirib bormoqda.

Eng muhim vazifa oqava va zovur suvlarini ruhsat etilgan ko'rsatkichga qadar texnologik jihatdan tozalashdan iboratdir. Bu esa O'zbekistonda 25 km^3 gacha suvni tejash imkoniyatini beradi, daryolar suvi tozalanadi, tuproqning sho'rlanishi birmuncha kamayadi. Shu bilan birga sug'oriladigan yerlarda suvdan, yerdan foydalanish koeffitsientini eng yuqori darajada bo'lishligini ta'minlash, sug'orish tarmoqlari, kollektor-zovur tizimlarining foydali ish koeffitsienti 85-90% ni tashkil qilishiga erishish zarur bo'ladi. Ekinlarga ularning suvga bo'lgan biologik talabiga ko'ra suv berilishini amalda qo'llash lozim. Ihota daraxtzorlarini har gektar maydonda tegishli zichlikda tashkil qilish ekinzorlarni shamol, garmsellardan saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy muhit xususiyatlariga qarab barcha resurslardan oqilona foydalanilgandagina va tadbirkorlik bilan xo'jalikni boshqarishga erishilgandagina, mo'ljallangan miqdor va sifat ko'rsatkichiga erishiladi.

Asosiy tayanch iboralar:

Tabiiy resurs - kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo'lgan xilma-xil vositalar.

Tiklanmaydigan tabiiy resurs - foydalanilayotgan darajadagidan yuz va hatto million marotaba sekin tiklanadigan tabiiy resurs.

Tiklanadigan tabiiy resurs - butunlay yo'q bo'lib ketmaydigan va qayta tiklanadigan resurs.

Paleolit davri - kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichi. 3 mln. yildan ko'proq davom etgan qadimgi tosh asri.

Monitoring - kuzatish, nazorat qilish va atrof-muhit holatini boshqarish. Uning bioekologik (sanitariya-gigienik). Geoekologik (geotizimli) hamda biosferali turlari ajratiladi.

Geografik ekspertiza - loyihalananayotgan korxonaning yoki tadbirning atrof-muhit talablariga mos kelish-kelmasligini aniqlash.

Ekologik ekspertiza - geografik muhitning biologik qismiga ta'sirini baholash

